

ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOTNING GLOBAL MUAMMOLARI**Turayev Abduvoxid Kuldashevich***Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**Raqamli iqtisodiyot kafedrasi assistenti*[*abduvoxidturayev70@gmail.com*](mailto:abduvoxidturayev70@gmail.com)**Baxriddinova Sevinch Furqat qizi***Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**Iqtisodiyot fakulteti XIM-324 guruh talabasi*[*sevinchbaxriddinova32@gmail.com*](mailto:sevinchbaxriddinova32@gmail.com)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada atrof-muhit muhofazasi va ekologik iqtisodiyotning global muammolari iqtisodiy, institutsional hamda ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi, chiqindilar ko‘payishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari bosimi va uglerod sig‘imi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish modelining oqibatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada ekologik iqtisodiyotning asosiy yondashuvlari, yashil o‘sish, aylanma iqtisodiyot, uglerod narxlash mexanizmlari va ekologik investitsiyalarning ahamiyati yoritiladi. O‘zbekiston sharoitida ekologik barqarorlikni ta’minlash, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik boshqaruvni kuchaytirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *atrof-muhit, ekologik iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, iqlim o‘zgarishi, barqaror rivojlanish, resurslar tanqisligi, chiqindilar, uglerod emissiyasi, ekologik investitsiya, aylanma iqtisodiyot.*

Аннотация. *В статье анализируются глобальные проблемы окружающей среды и экологической экономики с экономической, институциональной и социальной точек зрения. Рассматриваются изменение климата, дефицит ресурсов, рост отходов, сокращение биоразнообразия, давление на водные ресурсы и последствия углеродоёмкой модели производства. Особое внимание уделяется зелёному росту, циркулярной экономике, механизмам углеродного регулирования и экологическим инвестициям.*

Ключевые слова: *окружающая среда, экологическая экономика, зелёная экономика, изменение климата, устойчивое развитие, дефицит ресурсов, отходы, углеродные выбросы, экологические инвестиции.*

Annotation. *This article analyzes global environmental and ecological-economic problems from economic, institutional and social perspectives. It examines climate change,*

resource scarcity, waste growth, biodiversity loss, pressure on water resources and the consequences of carbon-intensive production models. The paper highlights green growth, circular economy, carbon pricing mechanisms and the importance of ecological investment.

Keywords: *environment, ecological economics, green economy, climate change, sustainable development, resource scarcity, waste, carbon emissions, ecological investment, circular economy.*

Kirish

XXI asrda iqtisodiy taraqqiyot masalasi atrof-muhit barqarorligidan ajralgan holda ko‘rib chiqilmaydi. Sanoatlashuv, urbanizatsiya, transport tizimlarining kengayishi, energiyaga talabning ortishi va iste‘mol madaniyatining o‘zgarishi tabiiy resurslar zaxirasiga kuchli bosim o‘tkazmoqda. Natijada iqlim o‘zgarishi, havo va suv ifloslanishi, yer degradatsiyasi, cho‘llanish, chiqindilar muammosi hamda biologik xilma-xillikning kamayishi global iqtisodiyotning eng dolzarb xavflaridan biriga aylandi.

An‘anaviy iqtisodiy yondashuv uzoq vaqt davomida yalpi ichki mahsulot o‘shini asosiy natija sifatida ko‘rib keldi. Biroq ekologik xarajatlar hisobga olinmasa, iqtisodiy o‘sh tashqi ko‘rinishda yuqori bo‘lsa ham, kelajak avlodlar uchun tabiiy kapitalning kamayishi, sog‘liqni saqlash xarajatlarining ortishi va ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi bilan yakunlanadi. Shu sababli ekologik iqtisodiyot inson ehtiyojlarini qondirish bilan birga tabiatning tiklanish imkoniyatlarini ham hisobga oluvchi ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi.

Ekologik iqtisodiyotning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, iqtisodiyot tabiatdan tashqarida emas, balki biosfera doirasida faoliyat yuritadi. Demak, tabiiy resurslar, atmosfera, suv havzalari, tuproq va ekotizim xizmatlari ishlab chiqarish jarayonining yashirin, lekin hal qiluvchi omillaridir. Ularni baholamaslik bozor signallarining buzilishiga, ekologik zararlarning jamiyat zimmasiga yuklanishiga va resurslardan haddan tashqari foydalanishga olib keladi.

O‘zbekiston uchun ham ushbu mavzu nihoyatda muhimdir. Mamlakatning qurg‘oqchil iqlimi, suv resurslariga yuqori bog‘liqligi, Orolbo‘yi ekologik inqirozi, energiya samaradorligi masalalari va sanoat modernizatsiyasi zarurati ekologik iqtisodiyot tamoyillarini amaliy siyosatga aylantirishni talab etadi. Shu bois mazkur maqolada global ekologik muammolar, ularning iqtisodiy oqibatlarini hamda O‘zbekiston sharoitida ekologik iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi

Ekologik iqtisodiyot nazariyasining shakllanishida barqaror rivojlanish konsepsiyasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. BMT doirasida ilgari surilgan barqaror rivojlanish yondashuvi iqtisodiy o‘sh, ijtimoiy adolat va ekologik muvozanatni yagona tizim

sifatida ko‘radi. Bu yondashuvda tabiiy resurslar faqat xomashyo manbai emas, balki milliy boylikning tarkibiy qismi sifatida baholanadi.¹⁷⁹

O‘zbekiston Respublikasining 2019-2030-yillar davrida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi ekologik iqtisodiyotni milliy rivojlanish siyosati bilan bog‘laydi. Strategiyada energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida resurs tejankor texnologiyalarni qo‘llash va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.¹⁸⁰

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasida ham ekologik barqarorlik masalasi alohida o‘rin tutadi. Xususan, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish, har yili 200 million tup daraxt ekish va respublikada yashillik darajasini 30 foizga yetkazish vazifalari belgilangan. Bu holat ekologik siyosatning faqat tabiatni muhofaza qilish emas, balki iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligini ta‘minlash omiliga aylanganini ko‘rsatadi.¹⁸¹

Xalqaro manbalarda iqlim o‘zgarishi ekologik iqtisodiyotning markaziy muammosi sifatida baholanadi. UNEPning 2024-yilgi Emissions Gap Report hisobotida 2023-yilda global issiqxona gazlari emissiyasi 57,1 gigatonna CO₂-ekvivalentga yetgani, bu esa tarixiy yuqori ko‘rsatkich ekani qayd etilgan. Mazkur raqam iqtisodiy faoliyatning hozirgi modeli tabiatning ko‘tarish imkoniyatlariga mos kelmayotganini ko‘rsatadi.¹⁸²

Jahon banki O‘zbekiston bo‘yicha iqlim va rivojlanish hisobotida mamlakatning ugler od neytralligiga erishish yo‘lida energiya sektori hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta‘kidlaydi. Hisobotda O‘zbekiston global issiqxona gazlari emissiyasining taxminan 0,3 foiziga javobgar ekani, mamlakat emissiyalarining katta qismi energiya sektori bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Demak, ekologik iqtisodiyot O‘zbekiston sharoitida energiya samaradorligi, sanoat modernizatsiyasi va transport tizimini yangilash bilan bevosita bog‘liq.¹⁸³

Tadqiqot metodologiyasi

¹⁷⁹BMT. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. - New York: United Nations, 2015. - B. 1–6.

¹⁸⁰O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. - Toshkent, 2019.

¹⁸¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoni. ‘O‘zbekiston - 2030’ strategiyasi to‘g‘risida. - Toshkent, 2023.

¹⁸²UNEP. Emissions Gap Report 2024: No more hot air ... please! - Nairobi: United Nations Environment Programme, 2024. - B. 1–4.

¹⁸³World Bank. Uzbekistan Country Climate and Development Report. - Washington, DC: World Bank, 2023. - B. 8–15.

Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, taqqoslash, statistik guruhlash, sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Birinchi bosqichda ekologik iqtisodiyotga oid nazariy yondashuvlar, milliy strategik hujjatlar va xalqaro hisobotlar o‘rganildi. Ikkinchi bosqichda global ekologik muammolar iqtisodiy oqibatlari bo‘yicha guruhlandi. Uchinchi bosqichda O‘zbekiston uchun dolzarb bo‘lgan ekologik-iqtisodiy muammolar va ularni yumshatish yo‘nalishlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda atrof-muhit muammolari uch darajada baholandi: global darajada iqlim o‘zgarishi va resurslar tanqisligi; mintaqaviy darajada suv resurslari, cho‘llanish va transchegaraviy ekologik xavflar; milliy darajada energiya samaradorligi, chiqindilar boshqaruvi va ekologik investitsiyalar. Bunday yondashuv ekologik muammolarni alohida hodisa sifatida emas, balki iqtisodiy tizim bilan o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Maqolada ekologik iqtisodiyotning asosiy baholash mezonlari sifatida quyidagilar tanlandi: tabiiy resurslardan foydalanish intensivligi, emissiya hajmi, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash darajasi, ekologik investitsiyalar ulushi va yashil infratuzilma rivoji. Ushbu mezonlar ekologik muammolarning iqtisodiy mazmunini ochish hamda amaliy takliflarni asoslash uchun qo‘llanildi.

Natijalar va muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, atrof-muhit va ekologik iqtisodiyotning global muammolari bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Iqlim o‘zgarishi energiya tizimi, transport, qishloq xo‘jaligi va sanoat faoliyatidan kelib chiqsa, resurslar tanqisligi ishlab chiqarish va iste‘molning samarasiz modeli bilan bog‘liq. Chiqindilar muammosi esa mahsulot hayotiy siklining yakuniy bosqichida emas, balki dizayn, ishlab chiqarish va iste‘mol madaniyatidan boshlanadi.

Jadval 1. Global ekologik muammolar va ularning iqtisodiy oqibatlari

Muammo	Asosiy sabab	Iqtisodiy oqibat	Ustuvor yechim
Iqlim o‘zgarishi	Energiya, transport va sanoatda uglerod sig‘imi yuqoriligi	Qurg‘oqchilik, hosildorlik pasayishi, infratuzilma zararlanishi	Dekarbonizatsiya, qayta tiklanuvchi energiya
Suv tanqisligi	Sug‘orish tizimlarida yo‘qotishlar, iqlim isishi	Qishloq xo‘jaligi xarajatlari oshishi, oziq-ovqat xavfsizligi xavfi	Suv tejoychi texnologiyalar, tarif va hisob tizimi
Chiqindilar ko‘payishi	Bir martalik iste‘mol, qayta ishlash infratuzilmasi sustligi	Yer va suv ifloslanishi, sog‘liq uchun xarajatlar ortishi	Aylanma iqtisodiyot, saralash va qayta ishlash


Biologik xilma-xillik qisqarishi	Yashash muhitining buzilishi, o‘rmonlar kamayishi	Ekotizim xizmatlari pasayishi, turizm va qishloq xo‘jaligiga zarar	Muhofaza hududlari, yashil hududlarni kengaytirish
Havo ifloslanishi	Transport, sanoat, past sifatli yoqilg‘i	Aholi salomatligi yomonlashishi, mehnat unumdorligi pasayishi	Toza transport, monitoring, texnologik modernizatsiya

Manba: muallif tomonidan BMT, Jahon banki va O‘zbekiston milliy strategik hujjatlari asosida tuzilgan.

Jadvaldan ko‘rinadiki, ekologik muammolarning iqtisodiy oqibatlari ko‘pincha yashirin xarajatlar shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan, havo ifloslanishi faqat ekologik zarar emas, balki mehnat unumdorligining pasayishi, sog‘liqni saqlash xarajatlarining ortishi va shahar iqtisodiyotida yashash sifatining yomonlashuvi bilan ham bog‘liq. Shu sababli ekologik iqtisodiyotda “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyili, ekologik soliqlar, uglerod bozorlaridan foydalanish va yashil moliyalashtirish instrumentlari muhim o‘rin egallaydi.

Global miqyosda ekologik inqirozning eng xavfli ko‘rinishi iqlim o‘zgarishidir. UNEP baholashlariga ko‘ra, 1,5°C maqsadini saqlab qolish uchun davlatlar 2030-yilgacha yillik issiqxona gazlari emissiyasini 42 foizga, 2035-yilgacha esa 57 foizga qisqartirish majburiyatini kuchaytirishi zarur. Bunday talab iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida chuqur texnologik va institutsional o‘zgarishlarni talab qiladi.¹⁸⁴

Diagramma 1. Prezident farmoni asosida ekologik ko‘rsatkichlarning 2025-2030-yillardagi dinamikasi



¹⁸⁴UNEP. Emissions Gap Report 2024. - Nairobi: United Nations Environment Programme, 2024. - B. 4–6.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni, 1-ilova, 55-60-betlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O‘zbekiston sharoitida ekologik iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biri energiya samaradorligini oshirishdir. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakat iqtisodiyotining energiya intensivligi qo‘shni Qozog‘istonga nisbatan qariyb 50 foiz yuqori, Turkiya ko‘rsatkichidan esa taxminan uch baravar yuqori baholanadi. Bu esa har bir ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmat birligi uchun ortiqcha energiya sarflanishini, natijada tannarx va emissiya oshishini anglatadi.¹⁸⁵

Ekologik iqtisodiyotning ikkinchi muhim yo‘nalishi suv resurslaridan oqilona foydalanishdir. O‘zbekiston iqtisodiyoti, ayniqsa qishloq xo‘jaligi suvga yuqori darajada bog‘liq. Iqlim o‘zgarishi sharoitida suv ta‘minoti barqarorligi nafaqat ekologik, balki makroiqtisodiy masalaga aylanadi. Tomchilatib sug‘orish, lazerli tekislash, suv hisobini raqamlashtirish va suv tejovchi agrotexnologiyalar fermer xo‘jaliklari xarajatlarini kamaytirishi hamda hosildorlikni barqarorlashtirishi mumkin.

Chiqindilarni boshqarish ham ekologik iqtisodiyotning amaliy sohasi hisoblanadi. Chiqindi poligonlariga tayanadigan model resurslarni yo‘qotish va atrof-muhitga bosimni kuchaytiradi. Aylanma iqtisodiyot esa mahsulotni qayta ishlash, ta‘mirlash, ikkilamchi xomashyodan foydalanish va chiqindini iqtisodiy resursga aylantirishga asoslanadi. Bu yondashuv yangi ish o‘rinlari, kichik biznes uchun yangi bozorlar va import o‘rnini bosuvchi xomashyo manbalarini yaratadi.

Jadval 2. Prezident farmoni asosida O‘zbekistonning ekologik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari (2025-2030-yillar)

Ko‘rsatkich	2025	2030	O‘zgarish	PDF beti	Mas’ul idora
Suv ishlatish samaradorligi	20%	25%	+5 punkt	52-53	Suv xo‘jaligi vazirligi
Suv tejash texnologiyalari bilan ta‘minlash	60%	100%	+40 punkt	54	Suv xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi
Shaharlar va tuman markazlarida yashillik darajasi	14,1%	30%	+15,9 punkt	55	Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi
Yashil bog‘lar va yashil parklar soni	107 ta	1 023 ta	+916 ta	56	Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi

¹⁸⁵World Bank. Uzbekistan Gas Leak Repair Facility Project Information Document. - Washington, DC: World Bank, 2025. - B. 3-5.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ulushi	14,1 %	15%	+0,9 punkt	59	Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi
Qattiq maishiy chiqindilar xizmatlari qamrovi	60%	90%	+30 punkt	59	Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi
Maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasi	5,3%	7%	+1,7 punkt	59-60	Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi
Atmosfera chiqindilarini kamaytirish	1,5%	7,5%	+6 punkt	60	Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni, 1-ilova, 52-60-betlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.¹⁸⁶

Ekologik iqtisodiyotning muvaffaqiyati faqat davlat dasturlariga emas, balki bozor ishtirokchilari xatti-harakatiga ham bog‘liq. Korxonalar uchun energiya va resurs tejamkor texnologiyalar iqtisodiy foyda keltirishi, banklar uchun yashil kreditlar xavfni kamaytirishi, aholi uchun esa chiqindilarni saralash va energiyani tejash kundalik madaniyatga aylanishi kerak. Shu jihatdan ekologik iqtisodiyot moliya, ta’lim, sanoat siyosati, qishloq xo‘jaligi va shaharsozlikni birlashtiruvchi kompleks tizimdir.

O‘zbekistonning atrof-muhit holati bo‘yicha milliy ma’ruzasida suv, havo, yer resurslari, biologik xilma-xillik va chiqindilar boshqaruvi bo‘yicha tizimli ma’lumotlarni shakllantirish ekologik boshqaruvning muhim sharti sifatida ko‘rsatiladi. Bu ekologik siyosatda ochiq ma’lumotlar va monitoring tizimlarining ahamiyatini oshiradi. Chunki aniq statistik ma’lumot bo‘lmasa, ekologik zarar narxini hisoblash, investitsiya ustuvorligini belgilash va siyosat samaradorligini baholash qiyinlashadi.¹⁸⁷

Xulosa va takliflar

Atrof-muhit va ekologik iqtisodiyotning global muammolari zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning eng muhim masalalaridan biridir. Iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, chiqindilar ko‘payishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va havo ifloslanishi endilikda faqat ekologik xavf emas, balki iqtisodiy o‘sish, investitsiya muhiti, aholi salomatligi va milliy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi omillardir.

¹⁸⁶O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. - Toshkent, 2026. - 1-ilova, B. 52–60.

¹⁸⁷O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. Atrof-muhit holati to‘g‘risida milliy ma’ruza: O‘zbekiston. - Toshkent, 2023. - B. 10–18.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik muammolarni hal qilish uchun iqtisodiy o‘shish modelini resurs tejankor, past uglerodli va aylanma iqtisodiyot tamoyillariga moslashtirish zarur. O‘zbekiston uchun bu jarayon energiya samaradorligini oshirish, suv resurslarini tejash, qayta tiklanuvchi energiyani kengaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik monitoringni kuchaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Maqola natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, korxonalarda majburiy va rag‘batlantiruvchi energiya auditlarini kengaytirish; ikkinchidan, yashil kreditlar, ekologik obligatsiyalar va resurs tejankor texnologiyalar uchun soliq imtiyozlarini kuchaytirish; uchinchidan, suv tejoyvchi texnologiyalarni qishloq xo‘jaligida ommalashtirish; to‘rtinchidan, chiqindilarni saralash va qayta ishlash infratuzilmasini hududlar kesimida rivojlantirish; beshinchidan, ekologik ma‘lumotlarning ochiqligini va raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etish lozim.

Umuman olganda, ekologik iqtisodiyot O‘zbekiston uchun cheklov emas, balki yangi rivojlanish imkoniyatidir. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil texnologiyalarni jalb etish va ekologik standartlarni kuchaytirish mamlakatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshiradi hamda barqaror iqtisodiy o‘shish uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. - Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoni. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida. - Toshkent, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. Atrof-muhit holati to‘g‘risida milliy ma‘ruza: O‘zbekiston. - Toshkent, 2023. - 137 b.
4. UNEP. Emissions Gap Report 2024: No more hot air ... please! - Nairobi: United Nations Environment Programme, 2024.
5. World Bank. Uzbekistan Country Climate and Development Report. - Washington, DC: World Bank, 2023.
6. World Bank. Uzbekistan Gas Leak Repair Facility Project Information Document. - Washington, DC: World Bank, 2025.
7. UNDP. Climate Public Expenditure and Institutional Review: Uzbekistan. - Tashkent, 2023.

8. Pearce D., Turner R.K. Economics of Natural Resources and the Environment. - Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1990.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha choratadbirlari to‘g‘risida. - Toshkent, 2026. - 154 b.